www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

NOGIRONLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING AHAMIYATI VA UNI TA'MINLASHNING XALQARO HAMDA MILLIY HUQUQIY TARTIBIYOTI

Isroilov Shaxzod Isomiddin o'g'li
Gmail: isroilovshahzod16@gmail.com
Telefon: +99894-695-65-20

ANNOTATSIYA: *Maqolada Respublikamizda aholining ajralmas bir bo'lagi bo'lib kelayotgan imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini har tomonlama muhofazasini ta'minlash, kamsitishlar va e'tiborsizliklarni oldini olish, o'z huquq va erkinliklarini tushunishi va talab qilishi uchun ularning huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish, nogironlarning iste'molchi huquqlarini to'la ta'minlash, bu boradagi qonunchilikni rivojlantirish, soddalashtish va shuningdek, ushbu sohadadi xalqaro-huquqiy tajribani o'rganish va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish o'z aksini topgan.*

Nima uchun nogironlar huquqlarini himoya qilish muhim? Ularga nisbatan jamiyatning alohida bo'g'imi sifatida qarash qanchalik to'g'ri? Bugun kunda Jaxon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yer yuzida ***1 milliarddan ortiq*** imkoniyati cheklangan shaxslar istiqomat qiladi. Bu dunyo aholisining 15 foizini va ularning 100 millionini esa bolalar tashkil qiladi. Mutaxassislarning fikricha, aholining keksayib borayotgani va surunkali kasalliklarning ortib borayotgani ham nogironlar sonining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bu borada rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lib, jumladan BMT Taraqqiyot dasturiga ko'ra, nogironlarning 80 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi[1]. Hozirga vaqtda *O'zbekiston aholisining esa 2,14 % nogironligi bor shaxslar sifatida qayd etilgan, bu raqamlarda taxminan 740 ming nafardan ortiqni tashkil etadi*[2].

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi imkoniyati cheklangan shaxslar kategoriyasiga va tarifiga to'xtalib o'tamiz. Jumladan, "*Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni*da ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan:

"Nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslardir"[3].

Shuningdek, nogironlik, invalidlik — kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish sifatida qaraladi. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. O'zbekistonda bu **Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi**. Nogironlik mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linib, vaqtincha (6—12 oy) yoki muddat siz qilib tayinlanadi.

- 1-guruh Nogironlikga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqalarning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar;

[1] https://www.worldbank.org/en/topic/disability#1
[2] https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/home/presscenter/pressreleases/2021/11/approach-and-practical-tools-in-disability-statistics--data-coll.html
[3] "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Toshkent sh., 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

- 2-guruh Nogironlikga mehnat qobiliyatini butunlay yo‘qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo‘lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat’i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar;
- 3-guruh Nogironlikga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi[4].

Ammo **Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani monitoring qilish** to’g’risidagi hujjatning 1-moddasida nogironlar atamasi barcha nogironlar, shu jumladan turli xil munosabat va atrof-muhit to'siqlari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, ularning jamiyatda to'liq va samarali ishtirok etishiga to'sqinlik qiladigan uzoq muddatli jismoniy, aqliy, intellektual yoki hissiy nuqsonlari bo'lganlarga nisbatan qo'llanilishi aytib o’tilgan.

Nogironlar huquqlarini ta’minlashning huquqiy asoslari: xalqaro va milliy.

Bu borada, dastlab, xalqaro hamjamiyatda amalga oshirilgan islohotlarga qaraydigan bo’lsak: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini imzolash 2006 yil 13 dekabrda Nyu-Yorkda boshlangan va XXI asrda imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan birinchi shartnoma sifatida e’tirof etilgan ushbu hujjat 2008-yil 3-mayda 50 ta davlat tomonidan imzolanganidan so‘ng kuchga kirgan. Konvensiyada birinchi bor nogironlar rahm-shafqat obyekti emas, balki huquq va erkinliklarga ega bo'lib, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda jamiyat va davlat rivojlanishining teng huquqli ishtirokchilari ekanligini tan olinadi.

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e’tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy yoki sinfiy yoki boshqa mavqeyidan qat’i nazar, har bir inson o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2006-yil 13-dekabrdagi 61/106-rezolyutsiyasida qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiya” hamda “Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi Konventsiyaga Fakultativ protokol” mazkur xalqaro hujjatlarning asosini tashkil etadi[5].

Agar statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratdigan bo’lsak, bugungi kunga qadar atigi 45 mamlakatda nogironlarga nisbatan kamsitishlarga qarshi qonunlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi ham yuqorida nomi tilga olingan BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasilarni imzolagan va shu asosda mamlakatimizda nogironlarning barcha huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan, 2008-yilda mamlakatimiz parlamenti tomonidan yangi tahrirdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lsa, 2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011–2015 yillarda yolg‘iz keksalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori buning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 17-fevralda qabul qilingan **“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 74-sonli farmoni. Unga ko’ra 2022-yil 1-apreldan boshlab:

o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalarning parvarishi bilan band bo‘lgan bolaning qonuniy vakiliga har oyda 500 000 so‘m miqdorida nafaqa to‘lovi (parvarishlash nafaqasi) joriy etildi. Bunda, parvarishlash nafaqasini to‘lash va yetkazib berish xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadigan

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi 195-son qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom”i

[5] Articles of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities and Optional Protocol 2006

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

qilib belgilab qo'yildi. Bunda parvarishlash nafaqasi fuqarolarning Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga qilgan murojaatlari asosida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi[6].

Yaponiya qonunchilik tizimidagi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari.

Yaponiyada nogiron kishi "jismoniy nogironlik yoki aqliy zaiflik tufayli kundalik hayoti yoki jamiyatdagi hayoti uzoq muddatda sezilarli darajada cheklangan shaxs" deb ta'riflanadi . Yaponiyada nogironlarning huquqlarini himoya qiluvchi ikkita, ayniqsa, nufuzli xalqaro qonunlarga asoslanadi: Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar (CRPD) va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

Shuningdek, Yaponiyada, boshqa mamlakatlar kabi, turli xil tibbiy sug'urta polislari va ijtimoiy sug'urta dasturlari mavjud. Lekin nogironligi bo'lgan shaxs agar chet elda tashxis qo'yilgan bo'lsa ham, Yaponiyadagi shifokor tomonidan qayta ko'rikdan o'tishi kerak bo'ladi. Unda ushbu shaxsdan nogironligi va uning cheklovlarini tasdiqlovchi bir qator qat'iy mezonlardan o'tishi talab qilinadi.

Uzoq muddatli nogironlik nafaqasiga muhtoj bo'lganlar uchun ikki xil ijtimoiy sug'urta dasturlari mavjud. Birinchisi, o'z-o'zini ish bilan band qilganlar yoki ishsizlar uchun - Milliy pensiya (NP) dasturi. Ikkinchisi, to'liq ish kunida ishlaydigan xodimlarning pensiya sug'urtasi (EPI) dasturi bo'yicha malakaga ega bo'lganlar uchun.

Ikkalasi o'rtasidagi farqni Milliy pensiya dasturi tekis tarif tizimidan foydalanadigan stavkalarda topish mumkin, xodimlarning pensiya sug'urtasi dasturining stavkalari esa ishlab topilgan miqdorga asoslanadi. Yaponiyada ijtimoiy sug'urtaning bir necha xil turlari mavjud; pensiya sug'urtasi, tibbiy sug'urta va uzoq muddatli parvarish sug'urtasi, ishsizlik sug'urtasi, ishchilarning baxtsiz hodisalardan tovon sug'urtasi .

Milliy pensiya (NP) dasturi doirasida mavjud huquqlar nogironlikning baholangan darajasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi va har ikki oyda, doimiy parvarishga muhtoj bo'lgan umumiy nogironligi bo'lganlarga har yili 990 000 yen yoki 8 250 AQSh dollarigacha to'lanadi. Har yili 227 900 yen yoki 1 850 AQSh dollari miqdoridagi nafaqalar birinchi ikki farzand uchun, agar bola nogiron bo'lsa, 18 yoki 20 yoshga to'ladigan moliyaviy yil oxirigacha to'lanadi. Xodimlarning pensiya sug'urtasi (EPI) dasturi bo'yicha nafaqalar, shuningdek, nogironlikning baholangan darajasiga qarab hisoblab chiqiladi, har yili 594 200 yen yoki 5 000 AQSh dollaridan boshlanadigan minimal nafaqa bilan, yuqorida aytib o'tilganidek, Milliy pensiya (NP) dasturi bo'yicha hisoblangan qaram qo'shimchalar bilan. 2012 yil holatiga ko'ra, Milliy pensiya va xodimlarning pensiya sug'urtasi sxemalari bilan birgalikda 1,825,210 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga ega.

Yuqorida aytib o'tilgan statistik ma'lumotlar, olimlar va tadqiqotchilarning fikrlarni, Yevropa Ittifoqi, AQSH va MDH davlatlari qonunchiligi asosida o'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib **xulosa** qiladigan bo'lsak. Bunda:

Birinchidan, O'zbekiston garchi xalqaro konvensiyani qabul qilganiga qaramay va u asosida yangi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlovchi normativ hujjatlar chiqargan bo'lsa-da, bularda nogironlarning huquqlari to'g'risida gapirilishiga qaramay, nogironlikning ta'rifi hali ham inson huquqlari himoyasi yondashuviga asoslanmagan. Qonunda nogironlik insonlarning barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlariga tenglashtirilgan hamda ular jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan teng ravishda to'liq va samarali ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi, «ijtimoiy yordam va himoyaga» muhtoj shaxslar sifatida ta'riflanadi.

---

[6] "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidentining 74-sonli farmoni. Toshkent sh., 2022-yil 17-fevral

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Biroq BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida «nogironlik tadrijiy rivojlanib boruvchi tushuncha bo‘lib, tana funksiyalari buzilgan insonlarda munosabat va muhit bilan bog‘liq to‘siqlar orasidagi o‘zaro aloqa natijasida nogironlik holati yuzaga keladi. Bu to‘siqlar ushbu insonlarni jamiyat hayotida barcha bilan teng ravishda to‘laqonli va samarali ishtirok etishlariga yo‘l qo‘ymaydi» deb tan olingan.

Shu sababli ham hozirgi kundagi statistik ma’lumotlar kishi hayratga soladi: ya’ni ko’plab davlatlarda(80%) imkoniyati cheklangan shaxslar umumiy aholining kamida 10-15 foizini tashkil qiladi: xoh u rivojlangan, xoh rivojlanayotgan bo’lsin. Lekin O’zbekistonning bu boradagi ko’rsatkichlari (2,14 %) Sog’liqni saqlash yoki boshqa inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarning shaubhalariga sabab bo’lmoqda.

Bu borada mening taklifim, milliy qonunchilik tizimida *shaxsni nogironligi belgilovchi xususiyatlarga o’zgartirishlar kiritilishi*, konvensiyaning va xorijiy davlatlarning tajribasini qonunchilikda aks ettirishi yanada ko’proq qatlamdagi imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlarini ta’minlashda asos bo’lishi mumkin.

Ikkinchidan, Avvalgi «nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunda «nogironlarning ijtimoiy infratuzilma obektlariga to‘sqinliksiz kirishini ta’minlash, transport, transport kommunikatsiyalari, aloqa va axborotdan foydalanish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganligi uchun» ma’muriy javobgarlik ko‘zda tutilgan edi.

Ammo Toshkent shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining ma’lumotlariga ko‘ra, «binolar va ijtimoiy infratuzilma obyektlarining 85 foizi nogironlar foydalanishi uchun moslashtirilmagan». Poytaxt transport infratuzilmasi nogironlar harakatlanishi uchun moslashtirilmagan ekan, viloyatlardagi ahvol haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Qonunlarda to‘siqsiz muhitni yaratish zarurligini belgilab qayta-qayta yozilmasin, qulay muhitni ta’minlashning aniq mexanizmlarini joriy qilmasdan vaziyatni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Afsuski, qonunga nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida aks ettirilgan «universal dizayn» tushunchasi kiritilmadi, ya’ni:

«barcha odamlar uchun moslashtirish yoki maxsus dizaynni talab etmaydigan holda eng yuqori imkoniyat darajasida yaroqli qilishga da’vat etilgan buyumlar, sharoit, dastur va hizmatlar dizaynini anglatadi. „Universal dizayn“ zarurat bo‘lganda aniq bir nogironlar uchun assistiv qurilmalarni istisno etmaydi».

Yangi qonunning 23-moddasi davlat qabul komissiyasiga nogironlar jamoat tashkilotlari vakillarini kiritgan holda ijtimoiy, maishiy va madaniy maqsadlardagi qurilish va rekonstruksiya qilingan obyektlarni foydalanishga topshirishni amalga oshirishni majbur qiladi.

Shu munosabat bilan, keyingi taklifim «Jamotchilik nazorati to‘g‘risida«gi va «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida«gi qonunlar asosida nafaqat qabul qilishda, balki ***ijtimoiy infratuzilma obyektlarini loyihalashda ham nogironlar NNTlari imkoniyatlarini kuchaytirish*** va faol jalb qilish zarur. Imkoniyat bo‘lsa, ushbu jarayonlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning barcha toifalari ishtirok etishi muhim, chunki ularga turli xil shart-sharoitlar yaratilishi kerak.

Uchinchidan, Yangi qonunga binoan, davlat qulay formatlarda axborot olinishini kafolatlaydi. Davlat telekanallari yangiliklar uzatilishini imo-ishora tarjimasi yoki subtitr bilan ta’minlashi kerak. Qonun 2021 yil 16 yanvarda kuchga kirgunga qadar, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi milliy telekanallarda subtitrlarni kiritish uchun o‘zbek nutqini avtomatik ravishda tanib olish texnologiyasini ishlab chiqishi kerak edi. Imo-ishora tarjimonlarining soni cheklangan bir vaqtda subtitrlar kar va zaif eshituvchi insonlar uchun ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini yaratib, ularning savodxonligini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘rsatuvlarni uzatish faqat yangiliklar dasturlari bilan cheklanib qolmaydi.

Afsuski, imo-ishora tili oldingi «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonundagi kabi yangi qonunda ham faqat «shaxslararo muloqot vositasi» bo‘lib qoldi. Davlatning imo-ishora tilini rivojlantirish va undan foydalanishda amaliy yordami unga davlat

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

tili maqomini berishdir, zero bu tilda eshitishda nuqsoni bo‘lgan insonlar ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shu sababli, keyingi taklifim Vazirlar Mahkamasining ***«Imo-ishora tili maqomi to‘g‘risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish*** zarur, bu O‘zbekistonda imo-ishora tilini joriy etish va rivojlantirish mexanizmini belgilab beradi.

To’rtinchidan, Inklyuziv ta’lim olish huquqini amalga oshirishning mavhum mexanizmi, ya’ni Qonunning 38-moddasida hayoti davomida maktabgacha ta’limdan tortib, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limgacha «Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarning inklyuziv ta’limini rivojlantirishni, ularning ta’lim olishi va kasbiy tayyorgarlikdan, qayta tayyorlashdan va malaka oshirishdan o‘tishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi» deb ko‘rsatilgan. Biroq inklyuziv ta’lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmi noaniq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun «Inklyuziv ta’lim to‘g‘risida"gi alohida normativ hujjatni qabul qilish talab etiladi.

«Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunning yangi tahririda inklyuziv ta’limni belgilovchi 20-modda kiritildi. Ammo qonunda «inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi» deyilgan. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, bunday tartib hali ishlab chiqilmagan.

Asosiy muammo shundaki, «sohaga oid shifokorlar tavsiyalari» ta’lim muassasalarida nogiron bolalar va kattalarning «o‘qish qobiliyati» yoki aksini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb qilishi mumkin. Shifokorlarning tavsiyalari ko‘pincha maslahat emas, balki imperativ hususiyatga ega bo‘lib, bu inklyuziv ta’lim huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Beshinchidan, Oldingi qonunda bo‘lgani kabi, yangi qonunda ham mahalliy davlat hokimiyati organlarining nogironlarni ish bilan ta’minlash uchun ishchilar umumiy sonining kamida 3% miqdorida ish joylarining minimal miqdorini belgilash vakolatlari saqlanib qolindi.

«Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonun oldin ham davlat hokimiyati organlarini 20 kishidan ortiq ishchilari bo‘lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ishchilar sonining kamida 3% miqdorida ish joylarini kvotalashtirishga majbur qilgandi. Bunda haqiqatdan Ish bilan ta’minlash kvotalari nogironlar foydasiga ishlaydimi? Javob aniq deb o‘ylaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining nogironlar ahvoli bo‘yicha vaziyat tahliliga ko‘ra, ro‘yxatdan o‘tgan nogironlarning atigi 7 foizigina rasmiy ravishda ish bilan ta’minlangan. Shu bilan birga, boshqa manbalarga ko‘ra, nogironlarning atigi 2 foizi ish bilan ta’minlangan. Mehnat kvotalarining samarasizligi sababi qonunchilik ijrosining qoniqarsiz monitoringida bo‘lishi mumkin.

Aholini ish bilan ta’minlash muammosiga muqobil yechim sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari va korxonalari nogironlar jamoat birlashmalari qoshidagi ixtisoslashgan korxonalarga, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshiradigan ***nogironlarga turar-joy bo‘lmagan ko‘chmas mulk ob’ektlarini, yer uchastkalarini imtiyozli shartlarda berishni taklif qilishi*** mumkin. Ammo, afsuski, Assotsiatsiyaning ushbu taklifiga o’xshagan talabi ham qonunga kiritilmadi.

Oltinchidan, barcha soha doirasida, ayniqsa sport sohasida ham imkoniyati cheklangan shaxslarga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Haqiqatdan, so’nggi yillarda Para Olimpiya bahslari doirasida o’tkazilayotgam musobaqalarda ma’lum bir kategoriyadagi sportchilarga imkoniyalar yaratilgan bo’lsa-da, asosiy qism aholining bu qatlami qamrab olinmayapti. Jumladan, birgina Yaponiyaniyaning o’zida maktablarning 60% ga yaqin o'quvchilar uchun "sport to'garaklari va boshqa to'garaklar faoliyati" bilan ta'minlaydi. Nogironlik turi bo‘yicha ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, “Eshitish qobiliyati past” maktabida sport to‘garaklari mashg‘ulotlarida qatnashish ulushi 90,5%ni, “Ko‘rish zaifligi” maktabida esa 80,4% ni tashkil etmoqda. Bizlarda esa bu ko’rsatkichlar juda past.

Yettinchidan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 31-moddasida nogironlik bo‘yicha tegishli statistik ma’lumotlar va tadqiqot ma’lumotlarini yig‘ish nazarda

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

tutilgan. Nogironlar assotsiatsiyasi tomonidan taklif qilingan statistik ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha shunga o'xshash modda ham qonunning so'nggi versiyasiga kiritilmadi.

Qonun chiqaruvchilar buni 2018 yil 22 martda Vazirlar Mahkamasining «Nogironligi bo'lgan shaxslarni statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi alohida qarori qabul qilingani bilan asosladilar. Mazkur qaror amalda aynan qanday amalga oshirilayotgani noaniqligicha qolmoqda. Nogironlik bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar kamligicha qolmoqda va nogironlar hayotini to'liq aks ettirmaydi.

Nogironlik bo'yicha ochiq statistika Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)larga erishish jarayonini kuzatish uchun juda muhimdir. Nogironlik masalalari beshta maqsadga kiritilgan, jumladan qashshoqlikni bartaraf qilish, sog'liq va farovonlik, gender tenglik, tengsizlikni kamaytirish, shuningdek, barqaror shaharlarni va aholi punktlarini rivojlantirish.

Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini samarali monitoring qilish uchun davlat muntazam ravishda nogironlar hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi statistik ma'lumotlarni to'plashni tashkil etishi va o'tkazishi kerak.

Bunday ma'lumotlarni muntazam ravishda tahlil qilish dolzarb muammolarni aniqlashga, turli guruhdagi nogironlar holatini baholashga va jismoniy muhitga kirish uchun sharoitlar mavjudligini alohida qayd etishga imkon beradi.

Nogironlarning hayotiy faoliyati to'g'risidagi keng qamrovli statistik ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: jinsi, yoshi, yashash joyi, nogironlik guruhi, ma'lumoti, bandligi, uy-joy ehtiyojlari va uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi, transport va reabilitatsiya vositalari, sport, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot, shuningdek, hayotning boshqa sohalari.

Sakkizinchidan, munosib turmush darajasi va ijtimoiy himoya qanday ta'minlashda qonunga nogironlarni va ularning oilalari sog'lig'i va farovonligini saqlash uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, bepul tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni yetarli darajada turmush darajasi bilan ta'minlashga oid moddalar kiritilmagan.

Asosiy masala ijtimoiy nafaqa va nogironlik bo'yicha to'lovlar miqdori bo'lib, ularning kun kechirish uchun zarur miqdordan pastroq belgilanishi mumkin emas. Bu O'zbekiston Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan. Biroq, ***kun kechirish uchun zarur miqdor va iste'mol savatchasining rasmiy hajmi hali tasdiqlanmagan***. Inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda har yili nogiron bolalar va kattalarga, shuningdek ularning vasiylariga to'lanadigan nafaqalarni har yili muvofiq darajada indeksatsiya qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

1. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni Toshkent sh., 2020-yil 15-oktabr, O'RQ-641-son.
2. Vazirlar Mahkamasining "Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati tashkiliy tuzilmasi faoliyatini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori
3. 2008-yilda mamlakatimiz parlamenti tomonidan yangi tahrirdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun
4. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni
5. O'zbekiston Prezidentining 2022-yil 17-fevralda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 74-sonli farmoni.

III. Asosiy adabiyotlar:

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

1. The Americans with Disabilities Act (ADA).1990
2. Articles of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities and Optional Protocol 2006
3. Iwakuma, Miho (2003). "Being Disabled in Modern Japan: A Minority Perspective". In Kramer, Eric Mark (ed.). The emerging monoculture: assimilation and the "model minority". Westport, Conn.: Praeger. ISBN 9780275973124.
4. Osamu, Nagase (June 2013). "Challenges of the Harmonization and Ratification of Convention on the Rights of Persons With Disabilities by Japan". Journal of Policy and Practice in Intellectual Disabilities. 10 (2): 93–95. doi:10.1111/jppi.12030.
5. Hasegawa, Tamako. "Japan's Employment Measures for Persons with Disabilities: Centered on Quota System of "Act on Employment Promotion of Persons with Disabilities"" (PDF). Hosei University and Japan Organization for the Employment of Elderly and Persons with Disabilities, National Institute of Vocational Rehabilitation. Retrieved 5 December 2017.

Internet-resurslar:

1. http://www.lex.uz.
2. http://www.norm.uz.
3. https://edu.uz.
4. https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/
5. https://www.nytimes.com/2008/09/18/business/18markets.html.